XALQ DEPUTATLARI AMUDARYO TUMAN KENGASHINING

Q A R O R I

2021 - yil 31 - dekabr VI-44-67-13-181-K/21 Amudaryo tumani hokimligi

Amudaryo tumani mahalliy byudjetining 2022 yilgi asosiy ko'rsatkichlari to'g'risida

Qoraqalpog’iston Respublikasi Jo’qorg’i Kengesining 2021 yil 30-dekabrdagi yigirma beshinchi sessiyasining 194-sonli qaroriga va O’zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to’g’risida”gi Qonunining 24-moddasiga asoslanib Xalq deputatlari Amudaryo tuman Kengashi

Q A R O R Q I L A D I:

1. Qoraqalpog’iston Respublikasi Jo’qorg’i Kengesining 2021 yil 30-dekabrdagi yigirma beshinchi sessiyasining 194-sonli qarori ijro uchun, tuman Moliya bo‘limi mudirining hisoboti rahbarlikka olinsin.

2. Tuman mahalliy byudjeti daromadlarining 2022-yilgi prognoz ko'rsatkichlari, byudjet mablag'lari harajatlari ko'rsatkichlari 1-7-ilovalarga muvofiq tasdiqlansin.

3. Tuman hokimligi (M.Temirboev), tuman davlat soliq inspektsiyasi (A.Seitov) va moliya bo'limi (U.Bekniyazov) tuman mahalliy byudjetining daromadlar qismining soliq turlari bo'yicha belgilangan rejalarining oshirib bajarilishini ta'minlasinlar.

4. Tuman moliya bo'limi (U.Bekniyazov)ga:

2022 yilda mahalliy byudjet xarajatlarini maqbullashtirish natijasida shakllanadigan manbalar hisobidan tumanni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish uchun ajratiladigan mablag'lar bo'yicha zarur tuzatishlar kiritib borish;

byudjetdan mablag' oluvchilarning byudjetdan mablag' bilan ta'minlash asoslari mavjudligini muntazam tahlil qilib borish, ajratilgan byudjet mablag'larining natijadorligiga erishilmayotgan byudjet muassasalarini qisqatirish yuzasidan tuman hokimligiga takliflar kiritib borish;

tuman g'aznachilik bo'linmasi (M.Kuchkarov) bilan birgalikda byudjet mablag'laridan maqsadli foydalanish va ularning asossiz sarflanishi ustidan qat'iy nazorat o'rnatish topshirilsin.

5. Tuman hokimligi tegishli mutasaddi tashkilotlar bilan birgalikda byudjet daromadlarining tasdiqlangan ko'rsatkichlari bajarilishini ta'minlasin. Hududlarning soliq solish bazasi kengaytirilishi va moliyaviy salohiyati mustahkamlanishi yuzasidan zaruriy chora-tadbirlar ko'rsin, byudjet mablag'laridan maqsadli foydalanishi ustidan qat'iy nazorat o'rnatsin.

6. Tuman moliya bo'limi (U.Bekniyazov) Xalq deputatlari tuman Kengashiga mahalliy byudjetning ijrosi to'g'risida har chorakda axborot berib borsin.

7. Tuman hokimligining Axborot xizmati rahbari (Ch.Arslonova) qarorning rasmiy e'lon qilinishi va hokimlik veb-saytiga joylashtirilishini, “Taraqqiyot ko'zgusi” gazetasi tahririyati (G'.Eshniyazov) ushbu qaror matnining “Taraqqiyot ko'zgusi” gazetasida chop qilinishini ta'minlasin.

8. Qaror rasmiy e'lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

9. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjetni shakllantirish va uni ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish hamda tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi **S.YO‘LDASHEV**

Халқ депутатлари Амударё туман
Кенгашининг
2021 йил 31 декабрдаги
VI-44-67-13-181-K/21-сон қарорига
1-илова

Qoraqalpog'iston Respublikasi Amudaryo tuman mahalliy byudjetlarining 2022-yilgi asosiy daromad ko'rsatkichlari

Daromad turlari		Jami ming so'mda
Daromadlar jami		**77 346 843,0**
	Ulushi	
	aholi soni bilan mutanosibligi	
1	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i	
2	Korxonalar aylanmasidan soliq	8 235 000,0
3	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i	
4	Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i(Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i-ITD)	1 200 000,0
5	Qo'shilgan qiymat solig'i	
6	Yakuniy iste'molchilarga benzin, dizel' yoqilg'isi va gaz realizatsiya qilishdagi aktsiz solig'i	
7	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	1 963 000,0
8	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	3 500 000,0
9	Yuridik shaxslar yer solig'i	7 551 843,0
10	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i	18 000 000,0
11	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	3 242 000,0
12	Er osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliq noruda	1 018 000,0
13	Davlat boji	
14	Jarimalar	
15	Davlat unitar korxonalari dividend tushumlari	

16	Davlat mulki bo'yicha ijara to'lovlari	
17	Yig'imlar	
Mobil' aloqa xizmati va alkogol' mahsulotlari, shu jumladan pivo uchun aktsiz solig'i tushumlaridan tegishli ravishda o'tkazib beriladigan daromad		**32 637 000,0**
1	Alkogol' mahsulotlari, shu jumladan pivo	12 352 000,0
2	Aktsiz solig'i mobil' aloqa xizmati	7 038 000,0
3	Aktsiz solig'i tamaki mahsulotlariga	13 247 000,0
	Aholi soni (01.07.2020) mingda	202,0
Tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar		**126 699 534,0**

Халқ депутатлари Амударё туман
Кенгашининг
2021 йил 31 декабрдаги
VI-44-67-13-181-K/21-сон қарорига
2-илова

2022 yil uchun Amudaryo tumani byudjetidan birinchi darajali byudjet mablag'larini taqsimlovchilarga ajratilgan xarajatlarning cheklangan miqdorlari

ming so'mda

№	Ko'rsatkichlar	Amudaryo tumani
	Xarajatlar miqdori, Jami	204 046 377,0
	shu jumladan:	
1	Maktabgacha ta'lim bo'limi xarajatlari	12 189 250,0
2	Xalq ta'limi bo'limi xarajatlari	9 413 798,0
3	Sog'liqni saqlash muassasalari xarajatlari(Tibbiyot birlashmasi va SEO va JSB)	66 550 318,0
4	Madaniyat bo'limi xarajatlari	1 931 717,0
5	Jismoniy tarbiya va sport xarajatlari	2 853 706,0
6	Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo'limi xarajatlari	1 150 360,0
7	Irrigatsiya bo'limi xarajatlari	4 180 416,0
8	Tuman fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi xarajatlari	926 817,0
9	Obodonlashtirish boshqarmasi xarajatlari	8 247 778,0
10	Hokimiyat xarajatlari	78 031 521,0
а)	Bolali oilalarga va kam ta'minlangan oilalarga nafaqalar va kompensatsiyalar	71 271 191,0
б)	Ijtimoiy ko'nikma markazlari	79 454,0
в)	Mahalliy byudjetlarda hokim yordamchilarining tavsiyalari asosida mahalla infratuzilmasini yaxshilash uchun	1 451 793,0
г)	Davlat boshqaruv idoralari	5 229 083,0

11	Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarini saqlash xarajatlari	7 020 901,0
12	ZAHIRA JAMG'ARMASI	1 924 966,0
13	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi	9 624 829,0

Халқ депутатлари Амударё туман
Кенгашининг
2021 йил 31 декабрдаги
VI-44-67-13-181-K/21-сон қарорига
3-илова

2022 yil uchun tuman byudjeti daromadi va xarajati prognoz ko'rsatkichi

ming. so'mda

№	Hududlar nomi	Daromad	Xarajat
	Jami	**77 346 843,0**	**204 046 377,0**
1	Amudaryo tumani	77 346 843,0	204 046 377,0

Халқ депутатлари Амударё туман
Кенгашининг
2021 йил 31 декабрдаги
VI-44-67-13-181-K/21-сон қарорига
4-илова

Amudaryo tumani byudjetiga ajratiladigan tartibga soluvchi byudjetlararo transfert miqdori

ming. so'mda

№	**Hudud nomi**	**Tartibga soluvchi transfert miqdori**
	Jami	**126 699 534,0**
1	Amudaryo tumani	126 699 534,0

Халқ депутатлари Амударё туман
Кенгашининг
2021 йил 31 декабрдаги
VI-44-67-13-181-K/21-сон қарорига
5-илова

2022 yil uchun Amudaryo tumani hokimligining Zaxira jamg'armasi mablag'i miqdori

ming. so'mda

№	Hududlar nomi	Miqdori
	Jami	**1 924 966,0**
1	Amudaryo tumani	1 924 966,0

Халқ депутатлари Амударё туман
Кенгашининг
2021 йил 31 декабрдаги
VI-44-67-13-181-K/21-сон қарорига
6-илова

2022 yil uchun Amudaryo tumani mahalliy byudjeti Aylanma kassa mablag'i miqdori(AKM)

ming. so'mda

№	Hududlar nomi	Miqdori
	Jami	**1 482 000,0**
1	Amudaryo tumani	1 482 000,0

Халқ депутатлари Амударё туман Кенгашининг
2021 йил 31 декабрдаги
VI-44-67-13-181-K/21-сон қарорига
7-илова

Umumdavlat soliqlaridan Amudaryo tuman mahalliy byudjetlariga ajratmalar me'yori*

(Foiz hisobida)

T/R	Tuman nomi	Jismoniy shaxslarning mulklarni ijaraga berishidan olinadigan yillik daromadlari bo'yicha deklaratsiyaga asosan hamda yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to'lanadigan daromad solig'i	Aylanmadan olinadigan soliq	Jismoniy shaxslar yer solig'i	Jismoniy shaxslar mol-mulk solig'i	Noruda qurilish materiallari uchun yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq	Ijara to'lovi	Aktsiz solig'i: benzin, dizel yoqilg'isi va gaz realizatsiyasidan soliq	Yuridik shaxslar yer solig'i	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq (bundan elektr stantsiyalari tomonidan to'lanadigan soliq mustasno)	Yig'imlar	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	Tumanning mahalliy byudjetiga boshqa tushumlari
1	Amudaryo tumani		100						100			100	

*Qonunga ko'ra boshqa majburiy to'lovlar viloyat byudjeti hamda tuman byudjeti o'rtasida quyidagi ajratmalar asosida taqsimlanadi.